



FORS - TOJIK VA O'ZBEK XALQLARI ADABIY ALOQALARI

Karimova Safiya Rasulovna

Sam DChTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va fors-tojik adabiyoti vakillarining o'ziga xos ijod namunalari tahlil etilgan. Fors-tojik adabiyoti namoyandalari – Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy va boshqalar adabiy ta'sirining hayotbaxsh ruhi Alisher Navoiy va boshqa turkiy shoirlarning bir qancha g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrdagi asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kalit so'zlar: ijodiy izdoshlik, xamsanavislik, g'azal, qit'a, ruboiy, an'ana.

Har qanday xalq badiiy adabiyoti boshqa xalqlar bilan aloqa qilmasdan, insoniyat tarixi yaratgan madaniyatning eng yaxshi tomonlarini o'rganmasdan, o'zlashtirmasdan turib, tor doirada, faqat o'z qobig'ida rivojlanishi mumkin emas. Darhaqiqat, jahon adabiyoti tarixidan ma'lum bo'lishicha, o'z davrining hamisha buyuk daholari o'zga xalqlar adabiyotining qudratli ta'siri ostida, ularda ilgari surilgan umuminsoniy masalalarni o'z tafakkurlarida “qayta ishlab” milliy zaminga moslashtira olishlari natijasidagina umumbashariy fikrlarni ko'tarib chiqqanlar.

Qadimiy va navqiron tojik adabiyotini O'rta Osiyoda yashovchi xalqarning adabiyoti bilan, ayniqsa, o'zbek adabiyoti bilan chambarchas bog'lovchi ajoyib an'analar mavjud. Xorazmiy, Kamol Xo'jandiydan tortib Alisher Navoiy, Gulxaniy, Maxmur, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Sadridin Ayniylargacha bo'lgan bir qancha o'zbek va tojik ijodkorlari o'z asarlarini har ikki tilda – ham tojik, ham o'zbek tillarida ijod etdilar. Ulug' tojik shoiri Abdurahmon Jomiy bilan benazir o'zbek shoiri Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik, ular ijodidagi g'oyaviy-badiiy uyg'unlik bu ikki qardosh xalq va ular adabiyotining bir-biriga yaqinligidan guvohlik beradi.

Bizning nazarimizda, har tomonlama miqyosli va maroqli mavzu – bu Abu Abdullo Rudakiy va Alisher Navoiy mavzusi sanaladi. Ammo, Alisher Navoiyning Abu Abdullo Rudakiy va uning ijodiyoti xususida biror-bir fikr bildirmaganligi buni dadil tadqiq etishga monelik qilishi tabiiy. Lekin, masalaning boshqa tomoni ham bor. Alisher Navoiy Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”i, Mahmud Koshg'ariy va uning “Devonu lug'otit turk”i, Ahmad Yassaviy “Hikmatlar”i borasida ham hech narsa demagan. Bundan Alisher Navoiy bu olim va shoirlarning asarlaridan mutlaqo bexabar edi, degan



xulosa chiqarib bo'lmaydi. Abu Abdullo Rudakiy va Alisher Navoiy ijodiyoti munosabati masalasida esa atoqli navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetovning mana bu mulohazalari haqiqatga juda muvofiq keladi, deb o'ylaymiz. Olim yozadi: "Navoiyning Rudakiyni eslamasligi, uning poeziyasiga Rudakiyning hech ta'siri yo'q degan gap emas, albatta... G'azalda Rudakiy qo'llagan vaznlar, ko'p iboralar, u g'azal asosiga olgan ishq, may, xursandchilik mavzulari, avtobiografik mavzu va boshqalar keyingi fors-tojik shoirlari, xususan, she'riy devon yaratgan Sa'diy Sheroziy, Xoja Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy tomonidan rivojlantirildi, chuqurlashtirildi, nihoyasiga yetkazildi. Alisher Navoiy lirik ijodi esa ko'proq shu shoirlarning ta'siri ostida rivojlana boshlagan edi. Demak, Abu Abdullo Rudakiy Alisher Navoiyga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatgani, Abu Abdullo Rudakiy poeziyasining hayotbaxsh an'analari o'zbek tilidagi Alisher Navoiy poeziyasida ham gullab-yashnagani ayni haqiqatdir". Darhaqiqat, Abu Abdullo Rudakiy an'alarining hayotbaxsh ruhi va ta'siri Alisher Navoiyning bir qancha g'azal, ruboiy va qit'alarida ko'zga tashlanib turadi. Abu Abdullo Rudakiyning quyidagi to'rtligi irsiyatga tayanib, irsiy xususiyatlarga e'tiborni tortib odamga baho berishning bir xarakterli namunasidir:

Ilonni har qancha qilsang tarbiyat,
Oxir zahrin sohib, yetkazar zahmat.
Nokas tabiati ilon kabidir,
Yuzin ko'rmaslikka etgil harakat.

Bu hikmatli so'zlar beixtiyor Alisher Navoiyning mashhur qit'asini yodga soladi:

Nokasu nojins avlodin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo'tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dag'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.

Abu Abdullo Rudakiyda ham, Alisher Navoiyda ham maqsad bitta: odamlarni "kasofat olami" vakillaridan ogohlantirish. Bunday g'oyaviy-badiiy monandlik Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylari, xususan, uning may va taqdir qiyinchiliklari yoritilgan to'rtliklari uchun ham xosdir.

X-XI asr fors-tojik poeziyasida Nosir Xusrav va Umar Xayyomning ijodi salmoqli o'rin tutadi. Ular o'zlaridan ilgari o'tgan mumtoz shoirlar ijodidagi falsafiy motivlardan oziqlanib, o'sha zamon uchun progressiv ahamiyatga ega bo'lgan ilg'or g'oyalarni olg'a surdilar.

XIII-XIV asrlar fors-tojik poeziyasi ko'proq falsafiy-didaktik xususiyatlarga ega bo'lib, unda Chingizxon boshliq mo'g'ul bosqinchilarining dahshatli janglari ta'siri ostida paydo bo'lgan so'fstik dunyoqarash yetakchi rol o'ynaydi. Jaloliddin Rumi, Amir Xusrav Dehlaviy va Sa'diy Sheroziylar



bu poeziyaning yirik vakillari edilar. Amir Xusrav Dehlaviy fors-tojik adabiyotida buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” chilik an’anasini davom ettirgan shoir hisoblanadi. Uning “Xamsa” siga kirgan besh mustaqil dostonida Nizomiy Ganjaviy dostonlaridagi an’anaviy sujet va obrazlar qo’llanilgan bo’lsa-da, ularning talqini tamoman yangi va originaldir. O’zining ajoyib ishqiy-lirik g’azallari va “Bo’ston”, “Guliston” nomli asarlari bilan dunyo adabiyotiga hissa qo’shgan shoir, faylasuf Sa’diy Sheroziy xalq og’zaki ijodining bebaho boyliklaridan barakali foydalanib, g’azalchilikni yuqori pog’onaga ko’tardi, badiiy proza taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shdi.

XV asrga kelib feodal munosabatlarning mustahkamlanishi sharoitida Samarqand, Buxoro, Hirot shaharlarida adabiy hayot yana jonlandi. Bu davr tojik va o’zbek shoirlari ijodida mumtoz adabiyotning eng yaxshi an’alarini rivojlantirishga bo’lgan intilish sezildi. O’zbek va tojik shoirlarining do’stligi, o’zaro ijodiy hamkorligi kuchaydi, ikki tilda asar yozish rasm bo’lib qoldi. Ana shunday sharoitda buyuk tojik shoiri Abdurahmon Jomiy va benazir o’zbek shoiri Alisher Navoiylar yashab ijod etdilar.

Alisher Navoiy o’zining juda ko’p asarlarida buyuk zamondoshlari mavlono Lutfiy bilan Abdurahmon Jomiyga bo’lgan hurmati va botiniy e’tiqodi haqida so’z yuritadi. Ularning siymosiga, ijodiga oid fikrlari “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug’atayn”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Nasoyim ul-muhabbat” va boshqa asarlarida mavjudligi ma’lum.

Abdurahmon Jomiy o’zining har tomonlama kamol topgan barakali ijodi bilan shuhrat qozondi. Uning “Bahoriston” va Nizomiy Ganjaviy “Xamsa” chiligi ta’siri ostida yaratgan yetti dostoni (“Haft avrang”) hamda uchta she’rlar devoni mavjud. “Badoye ul-vaqoye” nomli mashhur memuar asarning muallifi Vosifiy, o’zining didaktik xarakterdagi she’rlari bilan nom chiqargan shoir Binoiy, ajoyib lirik g’azalchi Hiloliy va boshqalar XV-XVI asrlar tojik adabiyotining yirik namoyandalari edilar.

Musharafiddin ibn Muslihiddin Abdulloh Sa’diy Sheroziy (1189-1292) haqidagi ma’lumotlar turli tazkiralarda turlicha keltiriladi. Shu bois ko’pgina olimlar uning hayoti va ijodi to’g’risida fikr bildirganda, shoir asarlaridagi qaydlarga suyanishadi. U 1189-yilda Sherozda amaldor oilasida tug’ilgan. Otasi Sa’d binni Zangiy qo’lida ishlagan. Bu haqda Sa’diy Sheroziy “Guliston” asarida yozadi:

Man on goh sari tochvar doshtam,
Ki sar dar kanori padar doshtam.

Sa’diy Sheroziyning oilaviy ahvoli haqida to’liq ma’lumot yo’q. Ammo, fors hokimi Shamsiddin Tozigo’yiga murojaat qilganidan yaqqol ko’rinadiki, Sa’diy Sheroziyning oilasi og’ir ahvolda yashagan. Sherozda siyosiy ahvol notinch bo’lgani uchun Sa’diy Sheroziy Bag’dodga yo’l oladi va u yerda



Nizomiya madrasasida tahsil oladi. Ilk ustoz Abdulfaraj Abdurahmon ibn Javziy (1186-1257) edi. Eng muhimi, tasavvuf ta'limotining asoslarini o'rganish niyatida Sa'diy Sheroziy o'ttiz yil safar qilib Arab, Eron, Turk va Rum mamlakatlarida bo'ladi. Sa'diy Sheroziyning mazkur yurtlardagi sayru sayohatining batafsil bayoni yo'q. Ammo, undagi tafsilotlar "Bo'ston" va "Guliston"da aks ettirilgan. Mumtoz adabiyotning barcha janrlarida ijod qilgan Sa'diy Sherozga qaytgach, parokanda she'rlarini jamlab 1257-yilda "Bo'ston", 1258-yilda "Guliston", to'rt devondan iborat kulliyotini yozdi. Bu devonlar: 1. "Tayibot". 2. "Badoye". 3. "Xavotim". 4. "G'azaliyoti qadim". Sa'diyshunos olimlar shoirning qalamiga mansub asarlarni quyidagicha tartib beradilar: "Bo'ston", "Guliston", "Qasoida", "Tarje'band", "Devoni Tayibot", "Devoni badoye", "Devoni xavotim", "G'azaliyoti qadim", "Qit'alar, ruboiylar va fardlar", "Chor risola" (maktublar va javoblar), "Sohibnoma".

Shu o'rinda adabiy ta'sir masalasi ustida ham bir oz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi: forsiy adabiyotning yirik namoyandalari yaratgan shoh asarlar, ularning insonparvarlik va hamdo'stlik g'oyalari asosida yaratilgan shoh asarlari (jumladan, Abu Abdullo Rudakiyning pand-hikmatlari, Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"si, Umar Xayyom ruboiylari, Farididdin Attor "Mantiq ut-tayr"i, "Ilohiynoma"si va "Tazkirat ul-avliyo"si, Mavlaviy "Masnaviyi ma'naviy"si va "Devoni kabir"i, Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si, Sa'diy Sheroziy "Guliston"i va "Bo'ston"i, Xoja Hofiz Sheroziy "Devon"i, Abdurahmon Jomiy "Haft avrang"i, "Bahoriston" va "Nafahot ul-uns"i, Soyib Tabriziy "Devon"i, Mirzo Abdulqodir Bedil g'azallari va masnaviylari...) jahon adabiyoti durdonalariga aylanishi bilan birga taniqli jahon adiblarining ijodiga ham sezilarli ta'sir o'tkazgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonini Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonidan, Iqbol Lohuriy o'zining ba'zi g'azal va masnaviylarini Mavlaviy she'riyatidan, Gyote "Sharqu g'arb" devonini Xoja Hofiz Sheroziy g'azallaridan, Lui Aragon "Devona Elza" va "Elzaning ko'zlari" nomli asarlarini Abdurahmon Jomiyning "Layli va Majnun" dostonidan ilhom olib yozganlari barchaga ma'lum. Ammo, ana shu adabiy hodisa jahon adabiyotshunosligida yetarli darajada o'rganilgan, deb bo'lmaydi.

O'zbek va fors-tojik adabiyotining Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Atoyi, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mohlaroyim Nodira, Jahonotin Uvaysiy, Muqimiy, Zokirjon Furqat kabi vakillari bir-birlarining ijod bobidagi yutuqlari sirlarini chuqur o'rgangan, ijodiy o'zlashtirgan holda o'ziga xos adabiyot namunalarini yaratganlar. Bu hol har ikki xalq adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shganligi tabiiydir.



O'zbek adabiyotining rivojida fors-tojik adabiyotining o'rni alohidadir. Biz buni Alisher Navoiy misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiy ustozlari – Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari fors-tojik adabiyotining buyuk siymolari asarlarini chuqur o'rgandi va ular ijodini o'ziga xos maktab deb bildi. Alisher Navoiy daho san'atkor bo'lib yetishgan ekan, bunda shubhasiz, turkiy tildagi adabiyotning ko'p asrlik ijodiy tajribasi asosiy manba bo'ldi. Shuningdek, ulkan shoir ijodining barkamolligini fors-tojik adabiyotining ta'siridan ham axtarish to'g'ri bo'ladi.

Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy bilan xamsanavislik maydonida bellashib turkiy tilda o'ziga xos "Xamsa" yaratdi. Shoir ustozlar an'alarini davom ettirib, ularga ijodiy munosabatda bo'ldi.

Alisher Navoiyning ko'p asarlarida, xususan, "Xamsa"ning ustozlar madhi berilgan sahifalarida shoirning ular ijodiga bo'lgan munosabati yorqin aks etgan. Shuningdek, ustozlarning Navoiy asarlarini o'rganish jarayonida fors-tojik ijodiga qay tarzda ta'sir ko'rsatganligi haqida ham muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Umuman, o'zbek va fors-tojik adabiyoti o'rtasidagi adabiy aloqalar qadimdan to hozirgacha davom etib kelmoqda. Bu adabiy aloqalar har ikki xalq adabiyotining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir.

Fors-tojik mumtoz adabiyoti arab xalifaligining hukmronligiga qarshi xalq noroziligi asosida va shu kurash jarayonida IX-XI asrlarda yozma adabiyot bo'lib shakllandi va taraqqiy topdi.

Fors-tojik adabiyotining ajoyib asarlari butun jahonni maftun etganligining boisi, uning chuqur ildizlari xalq og'zaki adabiyotidan oziqlanib, xalq g'oyalari bilan sug'orilganligidadir. Bu asarlar chet el bosqinchilariga qarshi til va din sohasidagi ruhiy zo'ravonlikka qarshi ko'tarilgan butun xalq harakatining ruhi bilan oziqlangan edi. Shuning uchun ham bu adabiyotning gullab-yashnashi O'rta Osiyo va Eron xalqlari arab xalifaligi hukmronligidan chiqib, o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritgan va o'zlarining markazlashgan feodal davlatlarini vujudga keltirgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda forsiy tildagi adabiyotga asos solgan Abu Shukur Balxiy, Ibn Vosif Sag'ziy, Shahid Balxiy, Abulmuayyad Balxiy, Hakim Xabboz Nishopuriy, Kisoyi Marvaziy, Abu Mansur Daqiqiy kabi shoirlar yashab ijod qildi. Ular ijodida yorug'likning qorong'ilik bilan kurashi, haqning nohaq ustidan g'alabasi motivlari, chuqur insonparvarlik tuyg'ulari, hayotga chorlovchi romantika, oddiy inson yuragi nozik pardalarini cherta olgan lirika necha asrlardan beri kishilar qalbini maftun etib kelmoqda. Bu adabiyotni taraqqiy ettirishda faqat hozirgi tojiklar va eronliklarning ajdodlarigina emas, o'zbeklar, ozarbayjonliklarning



ota-bobolari ham, shuningdek, shimoli-gʻarbiy Hindistonda yashab ijod etgan shoirlarning ham hissasi katta. Darhaqiqat, oʻzlari turkiy xalqlardan chiqqan boʻlsalar-da, asarlarini forsiy tilda yozgan Afzaliddin Hoqoniy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Navoiy Foni, Mirzo Abdulqodir Bedil, Zebunnisobegim Sohiba va boshqa koʻp shoirlarning asarlari kishi diliga huzur baxsh etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Мирзоев А. Сездаҳ мақола. – Душанбе: 1977. – Саҳ. 163.
2. Мумтоз Салмон. Озарбайжон адабиётининг манбалари. – Баку: 1986. – Б. 262-266.
3. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: 1968. – Б. 72.